

CHILLA DAVRIDAGI MASTIT KASALLIGI ETIOPATOGENEZI, PROFILAKTIKASI VA DAVOLASH USULLARI VA YOSH ONAGA TAVSIYALAR

Botirova Zarifaxon

*Abu Ali ibn Sino nomidagi Qo‘qon jamoat salomatligi texnikumi o‘qituvchisi.
Qo‘qon, O‘zbekiston.*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada chilla davrida ro‘y beradigan yiringli yallig‘lanish kasalliklaridan mastit kasalligi, uning etiopatogenezi, profilaktikasi to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan. Bundan tashqari kasallikning davolash usullari, ko‘zi yorigan yosh onalarga ginekologik tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *virulentlik, mastit, giperemiya, autogemoterapiya, fibroadenoma, papilloma, lipoma, angioma.*

Аннотация. *В статье представлены сведения о мастите, его этиопатогенезе и профилактике гнойно-воспалительных заболеваний, возникающих в период чиллеза. Кроме того, были даны методы лечения заболевания, гинекологические рекомендации для молодых мам со светлыми глазами.*

Ключевые слова: *вирулентность, мастит, гиперемия, аутогемотерапия, фиброаденома, папиллома, липома, ангиома.*

Abstract. *The article presents information about mastitis, its etiopathogenesis and prevention of purulent-inflammatory diseases that occur during the chillosis period. In addition, methods of treating the disease, gynecological recommendations for young mothers with light eyes were given.*

Key words: *virulence, mastitis, hyperemia, autohemotherapy, fibroadenoma, papilloma, lipoma, angioma.*

Chillada ba‘zan sut bezi yallig‘lanadi, mastit deb ushbu kasallikka nisbatan aytiladi. Tekshirishlardan ma‘lum bo‘lishicha, tuqqan ayol yotgan xona devorlari, karovat, tumbochkalar, umuman xonadagi anjomlar yuvilgan suvdan stafilokokk mikrobi topilgan. Shuning uchun chaqaloq hamda tuqqan ona yotadigan xona juda ozoda tutilishi zarur.

Yangi tuqqan ayolda infektsiyaning rivojlanish manbai ko‘payadi. Xususan, chilla davrida bachadondan keladigan ajralmalarda va mastit bo‘lib qolgan ko‘krakdan ajraladigan sutda mikroblar saqlanishi mumkin. Ba‘zan, onalar ko‘krak yallig‘langan bo‘lsa ham bolani emizishga undaydilar. Bu juda katta xato. Ona sutidagi mikroblar bola og‘ziga, ichagiga tushib, unda septik kasallikning (qonga mikroblar o‘tib, uni zaharlashi) avj olishiga sabab bo‘lishi mumkin. Yiring tug‘diruvchi mikroblar, asosan, stafilokokklar, ba‘zan streptokokklar va boshqa mikroorganizmlar sut bezini yallig‘lantiradi. Yiring tug‘diruvchi mikroblar ko‘krak uchining terisiga ifloslangan qo‘ldan, infeksiya tekkan kiyim-kechakdan, havo - tomchi infeksiyasi yo‘li bilan tushadi. Sut bezining terisidagi mikroblar ko‘krak uchining yorilgan joylaridan kiradi. Bola emizishda ko‘krak uchi terisining epiteliysi ko‘zga ko‘rinmaydigan darajada shikastlanadi, mikroblar sut beziga shu mikroskopik shikastlar orqali ham kiradi.

Ba'zan mikroblar sut beziga boshqa infeksiya o'choqlaridan limfogen yoki gematogen yo'l bilan kiradi.

Chilladagi mastit, odatda haroratning to'satdan 39°C gacha ko'tarilishi va undan oshishi, ba'zan qaltirashdan boshlanadi. Sut bezi og'riydi, ayol umuman betob bo'lib, boshi og'riydi, uyqusi buziladi, ishtahasi bo'g'iladi. Sut bezi kattalashib, ichkarisida bezillab turadigan zich qismi paypaslab topiladi (bu qismning aniq chegaralari bo'lmaydi), ba'zan yallig'langan joy ustidagi teri qizaradi. Qo'ltiqdagi limfa tugunlari ko'pincha kattalashib, sezuvchan bo'lib qoladi. Yallig'lanish sababli sut bezining yo'llari berkilib, sut dimlanib qoladi. Yallig'lanish jarayoni shu bosqichda to'xtashi mumkin, keyinchalik bemor sog'ayib ketadi. Noqulay sharoitda (organizm chidami pasayganda, infeksiya virulent bo'lganda, bemor noto'g'ri davolanganda) yallig'lanish jarayoni avj oladi va infiltrat yiringlaydi (yiringli mastit). Infiltrat yiringlanganda bemorning umumiy ahvoli yomonlashib, ko'pincha qaltiraydi, harorati remittik tusga kiradi. Sut bezidagi og'riq kuchayadi, zich infiltratning bir qismi bilqillab qoladi, uning ustidagi teri giperemiyalanib, picha ko'karadi. Yiringli mastit ko'pincha og'ir o'tib, uzoq davom etadi.

Ko'krak uchining yorilishiga yo'l qo'ymaslik (profilaktika) va unga davo qilish, homiladorlik vaqtida sut bezlarini parvarish qilish va bolani to'g'ri emizish ko'krak uchlarini yorilishidan saqlaydi. Sut bezlarini har kuni iliq suv bilan yuvib, yirik tukli sochiqqa artib turishning ahamiyati bor, ko'krak uchlarini po'st boylaganda (og'iz suti chiqib, shunday po'st hosil bo'ladi) ko'krak uchlarini 1 % li borat kislota eritmasi bilan yuvish tavsiya etiladi. Bola emayotganda ko'krak uchi atrofidagi qoramtir to'garakni ham og'ziga olishi kerak. Emizikli onaning sut bezlarini qat'iy toza tutishi juda ham muhim. Ko'krak uchi yorilganda nakladka orqali emizish tavsiya etiladi. Bolani emizib bo'lgandan keyin ko'krak uchi penitsillin eritmasi bilan artiladi (1 ml fiziologik eritmada 10000 birlik penitsillin eritiladi). Ko'krak uchining yorilgan joylariga oq streptotsid kukuni sepiladi. Metilen ko'kning spirtidagi eritmasidan qo'yish ham mumkin.

Mastitlarning davosi. Kasallik boshlanganda sut beziga muzli xalta qo'yish mumkin. Avval sut bezini ko'tarib qo'yib boylanadi. Davo qilishni Vishnevskiy mazi yoki kamfora moyi bilan isituvchi kompress qo'yishdan boshlasa bo'ladi. Ayni vaqtda muskul orasiga antibiotiklar (sutkada 500 000-800 000 birlik) yuboriladi. Sulfanilamid preparatlar yaxshi foyda beradi. Shunday davo qilingan ayol aksari tuzalib ketadi. Infiltrat kichrayib, yo'qolmasa autogemoterapiya qilinadi. Sut bezini bo'shatib turish davoning muhim shartidir. Shu sababli infiltrat yiringlamaganda bola emizish yoki sutso'rg'ichdan foydalanish davom ettirilaveradi yoki qo'l yordamida sut sog'iladi. Yiringli mastit jarrohlik yo'li bilan davolanadi (abscess ochiladi), abscess kichkina bo'lsa, yiringni shprisda tortib olib, o'rniga penitsillin kiritish bilan kifoyalansa bo'ladi.

Yillar davomida biror bir kasalliklar ayol organizmida yuz berishi kuzatiladi. Sut bezlari va ko'krak uchi adenomasi, sut yo'llari ichidagi papilomalar, fibroadenomalar, lipoma va angiomas sut bezlarining zararsiz shishlari hisoblanadi ular ko'p uchraydi. Sut bezlarida en ko'p uchraydigan havfli kasallikning bu turi - saraton (rak)dir. Bu kasallik jarroxlik, kimyoviy, gormonal va nur bilan davolanadi. Bundan tashqari kontratseptsiya vositalari homiladorlikni oldini oluvchi preparatlar bo'lib, sut bezlariga qiladigan ta'siri

haqida har xil fikrlar mavjud. Chiqadigan hamma preparatlar ham sut bezlari uchun zarar qilmaydi deb ayta olmaymiz. Agar homiladorlik yuz bermasa, demak gormonal fonda urug'lanishga halaqit beradigan qandaydir o'zgarishlar vujudga kelgan bo'ladi. Har qanday holatda ham iloji boricha, o'z shifokoringiz bilan bunday masalalarni hal qilganingiz ma'qul. Kasalliklarning oldini olish jarayonida keng ish olib borilayotganiga qaramay, bir necha xil kasalliklar borki, ularni qo'zg'atuvchi mikroblar hozirgacha xavfli bo'lib qolmoqda.

Xulosa. Mastit kasalligining oldini olishda avvalo, shaxsiy gigiyena qoidalariga qat'iy amal qilish, ya'ni ayol o'zining ichki kiyimlarini toza tutishi lozim. Siynabandlar tozaligi juda muhim sanaladi. Chunki, sut tez ayniydigan mahsulotlarga kiradi. Mastit bo'lib qolmasligi uchun ko'krak bezlarini homiladorlik davridayoq (V-VI oyligidan) chiniqtirishi kerak. Buning uchun xona haroratidagi iliq suv bilan ko'krak yuviladi, massaj qilinadi, sochiq bilan artiladi, ko'krak uchi tugmachalarini esa 10-15 minut massaj qilinadi. Ko'krak bezini bola emizishga ana shunday usullarda tayyorlash mastitni 3-4 marta kamaytiradi. Chaqaloqni to'g'ri emizish mastitni oldini oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Valeologiya asoslari: (o'quv qo'llanma) / D.D.Sharipova (va boshq.); O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — T.: Musiqa, 2010. - 116 b. I.Sharipova, D.D., va boshqalar.
2. Boxodirov K., Boboxodjayev N. Sog'lig'ingiz o'z qo'lingizda. — T.: Meditsina. Mahkamov M., Sodiqov Q.
3. Allayorov Ya.N. Akusherlik va ginekologiya: o'quv qo'llanma/ Ya.N.Allayorov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi; O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. – Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.
4. Parpiyeva, O. R., Nazarova, D., Ro'ziboyeva, O., & Jumaboyeva, M. (2024). SALOMATLIK–OLIY QADRIYAT SIFATIDA. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(27), 79-81.
5. Parpiyeva, O. R., & Ostanaqulov, A. D. (2019). Health theory. Форум молодых ученых, (6 (34)), 26-28.
6. Parpieva, O. R. (2023). HEALTH IS THE HIGHEST VALUE. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(11), 760-763.
7. Parpiyeva, O. R., & Dzhalloldinova, O. O. (2022). The role of Valeology in raising a healthy generation. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 13, 1-3.
8. Parpiyeva, O. R. (2021). Основы медицинских знаний (часть I). Учебной пособие.
9. Muydinova, Y. G., & Parpiyeva, O. R. (2021). Reproktiv salomatlik. O'quv qo'llanma. Fergana, Uzbekistan.
10. Muydinova, Y. G., & Parpiyeva, O. R. (2021). Reproductive health.